

TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA SMART USULIDAN FOYDALANISH METODIKASI

S.X.Abdullaev NDPI Aniq fanlar kafedراسi professori.

S.T.Abdumannonov NDPI 3-bosqich Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborotlashtirish muxitida ta'lim muassasalari o'quv jarayonida SMART usulidan foydalanish metodikasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborotlashtirish muxiti, professional ta'lim, SMART usuli, innovatsiya, innovatsion faoliyat.

Аннотация. В данной статье представлена методика использования интеллектуального метода в образовательном процессе образовательных учреждений в условиях информационной среды.

Ключевые слова: информационная среда, профессиональное образование, интеллектуальный метод, инновации, инновационная деятельность.

Annotation. This article presents the method of using the intellectual method in the educational process of educational institutions in the information environment.

Keywords: information environment, professional education, intellectual method, innovation, innovative activity.

Ta'lim innovatsiyalarini joriy etish bir necha vazifalarni hal etishni talab etadi, jumladan: zarur o'quv vositalari va didaktik materiallarni chop etish, ta'lim oluvchilarga tadbiq etilayotgan innovatsiyalar haqida ma'lumot berish, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, maxsus o'quv dasturlarini yaratishdir. Tadbiq etilayotgan innovatsiyalarning qay darajada samarali ekanligi pedagogik tajriba-sinov asosida aniqlanadi. Shu bois, innovatsiyalarning tadbiq etishda doimiy tahlillar o'tkazilishi kamchilik va nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Quyida SMART usulidan foydalanishning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlari keltirilgan bo'lib, ushbu usul yordamida turli loyihalarni ham ishlab chiqish mumkin.

Maqolada SMART usuliga misol keltirilgan bo'lib, unda aniq maqsad etib, ta'lim tizimiga texnologik ta'limni joriy etish masalasi dolzarb qilib olingan.

S-specific (Aniq maqsad) – texnologik ta'lim tizimini takomillashtirish pedagogik ta'lim bosqichlari asosida o'quv jarayonini tashkil etish.

M-measurulle (o'lchov) – o'quv reja, malaka talablari va texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlarni tayyorlash uchun master-klass tashkil etish.

A-achievable (qanday qilib?) – texnologiya fani bo'yicha o'qituvchilarning hususiyatlari, soxalari, ta'lim shakli, o'qitish vositalarini ishlab chiqish.

R-relevant (dozarbliligi) – Respublikamizda har qanday sohasini rivojlanish uchun malakali texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash.

T- time-bound (belgilangan vaqt) – 2022-2030 yillar.

Hozirda mamlakatimiz taraqqiyotining jahon hamjamiyati taraqqiyoti bilan integratsiyasi zamonaviy talim tizimi oldiga yuqori intellektual salohiyatli,

innovatsion rivojlangan kadrlarni shakllantirish va bunda talim sohasida erishilgan boy tajriba, ilm-fan va texnika- texnologiyalar, raqamli texnologiyalar imkoniyatlariga tayanish kerakligini takidlamogda.

Ushbu sohada olib borilgan izlanishlarimiz va tajribalarimiz natijalari intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari negizida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashni quyidagidek pedagogik ta'lim bosqichlari asosida olib borish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi [1-3]:

Aniqlashtirish bosqichi. Bu bosqich bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashning birinchi bosqichiga (kursiga) to'g'ri keladi. Unda quyidagilar asosiy e'tiborda bo'ladi:

Ta'lim oluvchilarga o'qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumotlar berilib boriladi;

Ta'lim oluvchilarga ularning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish haqida hamda professor- o'qituvchilar tomonidan berilayotgan ma'lumotlarni o'zlashtirishning ilg'or texnologiyalari o'rgatilib boriladi;

Ta'lim oluvchilarga ularning intellektuallashtirilgan salohiyatiga va kasbiy faoliyatiga oid ma'lumotlarini o'rganishning optimal yo'llari o'rgatilib boriladi va bunda axborot tashuv vositalari (intellektuallashtirilgan texnologik xarita, fleshka, vertual stend va shu kabilar)dan foydalanishga tavsiya va ko'rsatmalarni berib boriladi;

Ta'lim oluvchilarga intellektuallashtirilgan o'qitish vositalari va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlar berib boriladi;

Ta'lim oluvchilarga intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlarining, xususan zamonaviy kompyuterlarning keng qamrovli va katta xajmdagi ma'lumotlar bilan ish ko'rsatishda ular universal didaktik asoslar va vositalar ekanligini hamda ular asosida paydo bo'lgan imkoniyatlar haqida muntazam ravishda tushintirib borish kerak bo'ladi;

Ta'lim oluvchilarning ongiga o'quv vazifalari va topshiriqlari dalil (voqea, hodisa)lardan tashkil topishligini singdirib borish kerak;

Ta'lim oluvchilarga bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashdagi tarkibiy tuzilmaning har bir tarkibiy qismlari orasidagi bog'lanishlarning mavjudligini va bu bog'lanishlarga sabab-oqibat tizim negizidagi ma'lumotlar izchilligini tarkib toptirishni o'rgatib borish.

Bu qayd etilganlarni e'tiborga olib bu bosqichni izlanish bosqichi deb ataladi. Bu bosqichni bajarishga quyidagidek talablarni qo'ydik:

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga o'qituvchilik kasbi bo'yicha ma'lumotlar beriladi va ularga o'qituvchilik kasbi haqidagi ma'lumotlarni yuksaltirishga oid metodlar tavsiya qilinadi;

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilariga intellektuallashtirish vositalari va intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlari bilan muloqot qilishlarini o'rgatish kundalik vazifaga aylantiriladi;

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'quv vazifalarini va topshiriqlarini dalil (voqea, hodisa, narsa va predmet)lardan mazkur dalillarni

kelib chiqish sabab-oqibatlarini va ularning orasidagi bog‘lanishlarni anglab etishga o‘rgatiladi.

Shakllantirish bosqichi. Bu bosqich bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashning ikkinchi bosqichiga (kursiga) to‘g‘ri keladi. Unda quyidagilar asosiy e‘tiborda bo‘ladi:

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari mustaqil ravishda izlanish bosqichidagi (birinchi bosqichdagi) faoliyatini davom ettiradi;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari berilgan vazifa va topshiriqlarga mos holda predmet tayyorlash, narsa yasash, muayyan mavzuni o‘zlashtirishning konseptual modelini shakllantirish kabi faoliyatlarga jalb etiladi;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga oid didaktik o‘yinlar va treninglarni tashkil etish faoliyatlariga jalb etiladi;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida “fan, ta’lim, amaliyot” negizida ta’lim-tarbiya berishga ma’naviy ehtiyojni yuzaga chiqarish va uning mazmunini “ta’lim kelajak poydevori bo‘lsa, ilm-fan taraqqiyot poydevori”, degan absalyut haqiqat nuqtai nazardan tashkil etish kerak bo‘ladi.

Bunday maqsad va vazifalarni bajarishga mos holdagi talablar bor. Biz ularni quyidagidek qilib belgilab oldik: bunda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari izlanishlar olib borishga kirishishi kerak; muayyan mavzuni o‘rganish jarayonini konseptual modellashtirishga kirishish kerak; fan (mavzu) bayonini o‘rganishni engillashtirish uchun maket, buyum, narsa va shu kabilarni mustaqil va ongli ravishda yasashga kirishib ketishi kerak; professor–o‘qituvchilar tomonidan berilanadigan topshiriq va vazifalarni bajarishning alternativ variantlarini ham tayyorlashga tobora kirib boraverishiga etiborni kuchaytirish kerak; bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi o‘z kasbiy faoliyati bo‘yicha treninglar o‘tkazishga tayyor bo‘lishi kerak va h.k.

Tadqiqotchilik bosqichi. Bu bosqich bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning uchinchi bosqichiga (kursiga) to‘g‘ri keladi. Bunda quyidagilar asosiy etiborda bo‘ladi:

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari o‘z kasbining ijtimoiy jixatlarini tahliliy o‘rganib, ularning ijtimoiy va istiqbolli yo‘nalishlari haqida mukammal bilimlarga ega bo‘lishlari;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari topshiriq va vazifalarni mustaqil hal qilishlariga;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini o‘z kasbiy faoliyatining monitoringini olib borishga kirishib borishi;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari manbalarni o‘rganishga kreativ yondashuv qila olishga kirishib borishi;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida talim-tarbiya jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilishga muntazam ravishda o‘rgatilib borishi;

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini o‘z kasbiy faoliyatidagi “UFQ” (kutilayotgan natija)ni egallashga undash kabi faoliyatlarga doimiy etiborda bo‘lishiga va shu kabilarga.

Qayd etilgan maqsad-vazifalardan ko‘rinib turibdiki, ular oldindan belgilangan qat’iy talablar asosida amalga oshiriladi. Biz bunday bu bosqichga tegishli talablarni quyidagidek qilib asoslab oldik: bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi o‘z kasbining ijtimoiy ahamiyatini ilmiy jixatdan asoslay olishi va ularga oid ijtimoiy vaziyatlarni to‘g‘ri va ongli ravishda hal eta olishi kerak bo‘ladi; bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi berilgan topshiriqlarni bajarishga kreativ yondashuv qila olishi kerak; bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilari muayyan mavzu bo‘yicha ijodiy topshiriqlar tayyorlab, ularni amaliyotga joriy etishni o‘rgangan bo‘lishi kerak; bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining o‘zining intellektual kasbiy faoliyatining yuksalib borishini nazorat qilib borishga o‘rganishi kerak va shu kabilar.

Demak, intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlari negizida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash uchun mahsus innovatsion xarakterdagi ilmiy-metodik asoslarni ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi va bunda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi pedagogik ta’lim bosqichlari mazmunini intellektuallashtirishga etiborni kuchaytirish kerak bo‘ladi. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan pedagogik talim bosqichlari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini intellektual-kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo‘yiladigan zamonaviy talablar ham innovatsion xarakterga ega bo‘lib, ulardan bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-amaliy faoliyatga tayyorlashning optimal variantlaridan birini qo‘lga kiritishni kafolatlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev S.X. O‘qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi // Zamonaviy ta’lim. Toshkent, 2021. 9-son. B.28- 36.
2. Abdullayev S.X. Texnologik ta’lim o‘qituvchilarining ergonomik kompetentligini takomillashtirish//OTFIV. Fan ziyosi nasriyoti. Toshkent. 2023. ISBN: 978-9910-744-50-1. B.191.
3. To‘raqulov X. A. Ilmiy ijodiyot metodologiyasi. Monografiya. – T: Fan, 2007, 248 b.
4. To‘raqulov X. A, Hasanboev J, Alqarov I, Usmonov N, To‘raqulov O. X. Ilmiy tadqiqotasoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2011, 484b.
5. To‘raqulov X. A., To‘raqulov O. X., To‘raqulova I. X., To‘raqulov U. X. Ilmiy tadqiqotasoslari: 1000 savolga 1000 javob. - T . : Fan va texnologiya, 2019, 632 b.
6. Ruslanovna, M. J. (2023). Modern technologies for teaching students the skills of technological thinking. World Bulletin of Social Sciences, 20, 1-3.